

O'zbekiston Respublikasi chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar–noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Chakana savdo tovar aylanmasi
- II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi
- III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi
- IV. Uslubiy ma'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar


I. Chakana savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 86 197 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 344 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 85 853 tani tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–noyabr oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi 402 952,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar–noyabr oylariga nisbatan 11,0 %ga o'sdi. Jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi 72 617,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 120,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi esa 330 334,5 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 109,1 %).

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati


2025-yil yanvar–noyabr oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Chakana savdo tovar aylanmasi hajmi \(oylik\)](#)

Chakana savdo hajmida yirik korxonalar, kichik biznes
va xususiy tadbirkorlikning ulushi bo'yicha dinamikasi




II. Ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 51 497 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 363 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 51 134 tani tashkil etdi.

Respublika bo'yicha 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 443 425,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 12,8 %ga o'sdi.


Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 123 213,0 mlrd so'mni tashkil etdi (o'sish sur'ati – 123,6 %), kichik biznes subyektlarining tovar aylanmasi esa 320 212,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati – 109,1 %). Respublikada jami ulgurji savdo hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi 72,2 %ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi
2025-yil yanvar–noyabr oylari, mlrd so'm



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmining o'sish sur'atlari 2025-yil yanvar–noyabr oylari



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasi

2025-yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 26 278 tani tashkil etib, shundan faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 113 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 26 165 tani tashkil etdi.

2025-yilning yanvar–noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 215 491,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 15,2 %ga o'sdi. Savdo aylanmasining 84,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi, yirik korxonalar ulushi esa 15,9 %ni tashkil etdi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati dinamikasi 2025-yil yanvar–noyabr



IV. Uslubiy ma'lumotlar

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasining statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, "Milliy hisoblar tizimi – 2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), "Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar" (MDH qo'mitasi, 2011) xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalaniladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlari norasmiy va yashirin iqtisodiyotning statistik baholash natijalari inobatga olingan holda hisoblanadi.

V. Aloqador boshqa havolalar

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga mas'ul:
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63.
Elektron pochta: info@stat.uz
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1185)

